

"ZARBULMASALI SIDQIY" NING MATNIY TADQIQI

Sultankulov Jo'raboy

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich magistranti

Sharq xalqlari qadim zamonlardan buyon jahon madaniyatining ulkan xazinasiga o'zining mumtoz asarlari bilan hissa qo'shgan ko'pgina buyuk ijodkorlarni yetishtirib byerdi. Ularning myerosini kyeng xalq ommasiga yetkazib byerish madaniyatimizning to'kisligi uchun nihoyatda zarurdir. Bu ishlarni o'tmish qo'lyozmalarni yig'ish, ilmiy-tanqidiy o'rganish va nashr qilish bilan shug'ullanuvchi manbashunoslik va matnshunoslik bilimlarisiz, arabiy imlo malakasisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Shu nuqtai nazardan, Qo'qon adabiy muhiti xalqimiz madaniy merosining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Bu adabiy-ijodiy muhit o'nlab iste'dod sohiblarini tarbiyalab kamolga etkazgan. Sho'ro zamonida ulardan ayrimlarining hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari nashr qilingan bo'lsa, ba'zilarining adabiy merosi umuman e'tibordan chetda qolib keldi. Ana shunday qalamkashlardan biri Sirojiddin Sidqiydir. U o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos va mustahkam o'rin egallay olgan iste'dodli qalam sohibidir. Sidqiy Xandaqliqiy asrimizning boshlarida adabiyotimizga shoir, nosir, tarjimon, xattot va rassom sifatida kirib keldi hamda "Shevan", "Iskandar", "Shavkat", "Sidqiy" taxalluslari bilan qalam tebratib, salmoqli adabiy meros qoldirdi.

Sidqiy Xondayliqiyning "Mezoni shariat" asari 1915-yilda Toshkentda Orifjonov litografiyasida toshbosma usulida chop etilgan va 1917-yilda yana qayta nashr etilgan. O'zRFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida "Mezoni shariat" asarining 4 ta nusxasi mavjud bo'lib, ular №4043, №4042, №8831, №18717-inventar raqamlarda saqlanadi. Bu nusxalarning barchasi 1915-1917-yillarda bosmadan chiqarilgan. Ba'zi manbalarga ko'ra, mazkur kitobning bir nusxasi toshkentlik kitob ixlosmandi Shotursun ota Shorahim o'g'lining shaxsiy kutubxonalarida saqlanmoqda.[6] 1992-yilda asar Mahmud Hasaniy tomonidan qayta nashr etildi. Begali Qosimov fikricha, bu asarida Sidqiy shariat mezonlarini ommabop qilib berdi, qulay dastur shakliga keltirdi.[4;337] "Sad irshodi mullo Sidqiy" asarining yagona nusxasi O'ZRFA ShI qo'lyozmalar fondida №7629- inventar raqami ostida saqlanadi. [2] Ushbu raqamli qo'lyozmaga adibning "Devoni Sidqiy" va "Iktisob" (Holoti Sidqiy" ilova qilingan) asarlari ham kiritilgan. Xati nasta'liq. Asarlar 1924-yilda Toshkentda ko'chirilgan. Qo'lyozma hajmi jami 67 varaq, shundan 7 varag'i "Sad irshodi mullo Sidqiy" (Sidqiy Xondayliqiyning yuz nasihati") asari qo'lyozmasidir. Qo'lyozmada "Sad pand"

nomi bilan ham berilgan. Asarlarga muallifning o'zi xattotlik qilgan. Ilk bor 1984-yilda nashr etilgan "Navbahor" to'plamida asardan ayrim parchalar berildi.

O'zRFA ShI Qo'lyozmalar fondining №7631-inventar raqami ostida saqlanayotgan "Sidqiyning notamom qolgan asarlari" nomli qo'lyozmaga Sirojiddin Sidqiyning tugallanmay qolgan asarlari kiritilgan. Maktab daftariga yozilgan 2 ta kichkina qo'lyozmada "Zarbulmasali Sidqiy" asari ham berilgan. Asar hajmi taxminan 8 varaq. Muallif dastxati. Asosan oddiy yozuvda ko'chirilgan. Harflari juda mayda, o'qish qiyin, husnixat qoidalariga rioya qilinmagan.

"Zarbulmasali Sidqiy" oddiy maktab daftari varaqlariga, asosan, qizil va ba'zi yerlari qora siyoh bilan isloh qilingan eski o'zbek yozuvida ko'chirilgan. Muallif o'chirib, qaytadan yozgan joylari ko'pligini inobatga olsak, bu muallifning mashq daftari. Asar besh yuzdan ortiq maqol, matal va xalq naqlariga qo'yilgan savol va ularga to'g'ri, kinoya hamda kesatq ma'nolaridagi izoh yoki javoblardan iborat.[8;29] Sirojiddin Sidqiy o'z didaktik qarashlarini, jamiyatda ro'y berayotgan voqealarga munosabatini savol-javoblar orqali ifodalashga harakat qiladi. Zarbulmasali Sidqiy asari 1932-yilda Toshkentda yozilgan va 1998-yilgacha hech qayerda nashr qilinmagan, u haqda ma'lumot ham berilmagan. 1998-yilda Begali Qosimov so'zboshisi bilan nashr etilgan "Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar "(1998) to'plamida ilk bor "Zarbulmasali Sidqiy"dan namunalar berildi. To'plamda jami 121 ta savol-javob berilgan bo'lib, 100 tasi O'zRFA ShI qo'lyozmalar fondidagi nusxadan, qolgan 21 ta savol-javob Sirojiddin Sidqiyning kuyovi Obid ota qo'lida saqlanayotgan dastxat nusxadan olingan.[8; 293]

Asar dastlab «Savol-javobli yuz so'z» nomi bilan yozila boshlagan. Muallif birinchi qismning musavvadasidayoq savol-javobni yuztaga yetkazib qo'yadi. Biroq boshqa bir daftarda ayni shu savol-javoblarning ko'pini she'riy parchalar bilan xulosalab, ularning miqdorini besh yuzdan oshirgan, bosh varaq hoshiyasiga «Zarbulmasali Sidqiy» deb yozib qo'ygan. Hozirda shulardan 268 tasi aniqlanib, jamlandi, 253 tasi esa hozirgacha noma'lumligicha turibdi.[8;29]

Sidqiy Xondayliqiyning nasriy asarlari qanday mavzuda yozilgan bo'lmasin hammasida didaktika, pand-nasihat ruhi yetakchilik qiladi. Bu asarlar mumtoz adabiyotimizdagi e'tiqod mustahkamligi, ilmni e'zozlash, ma'rifatparvarlik, odamiylik, to'g'rilik, qanoat, insoniy muhabbat singari eng yaxshi an'analarini davom ettiradi. Adib nasriy asarlarining katta qismi hayot tajribalaridan yig'ilgan xulosalar asosida yuzaga kelgan, u o'z xalqining farzandi sifatida o'sha davrdagi barcha yaxshi va yomon jihatlarini o'z asarlarida aks ettirgan.

Nasriy merosining o'ziga xos xususiyatlari va badiiyati masalalari. Adib nasriy asarlarining badiiy-estetik qimmatini alohida ta'kidlamog' lozim. Chunki

adibning har bir asari, mavzusidan qat'iy nazar o'ziga xos badiiyat elementlariga ega. Ulardagi umumiylik sari qahramonlarining ilmi, oqil va odil va sabr-bardoshli hamda ezgulik timsoli ekanini ro'yobga chiqarishga qaratilgandir. Muallif haqiqiy insoniy tuyg'ularni estetik zavqqa qo'shib ifodalay olish is'tedodini to'liq namoyish etdi. Asarning xarakteriga qarab, ularda payg'ambarlar, tarixiy shaxslar, donishmandlar ("Tazkirai Imomi A'zam") obrazlarini yaratgan ekan, hayotni badiiy aks ettirish asosan, xalq og'zaki ijodi tasvir vositalariga, fantastic tasvir vositalariga ko'proq suyanadi. Xususan, tush epizodlarini badiiy ifoda vositasi sifatida qo'llanishi xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan usuldir. Chunonchi Imomi A'zamning dunyoga kelishid sahobalarning Ma'oz jabal tushida yorqin bir yulduz ko'rgani rasulullohga so'zlab bergani va u kishi Imomi A'zamning dunyoga kelishlarini bashorot qilganlari lavhasini yooki "Vasiyatnoma" qissasida hazrati payg'ambarning olmdan o'tishlari bir vaqtning o'zida bir qancha sahobalarning tushlariga kirganini eslashning zi kifoya.

Adibning hikmatlarida esa ("Sad irshod...", "Zarbulmasali Sidqiy") oddiy fuqaroning real hayotdagi haqqoniy tasviri o'z aksini topgan. Bu xildagi asarlarda badiiylikning asosiy yuki obrazli ifodalarga tushadi. Inson hamisha go'zallikka intilib kelgan. Bu intilish bor ekan- hayot go'zal, nafis adabiyot esa hayotning badiiy aks etshidir. Sirojiddin Sidiqiy kishilarning ma'naviy dunyoqarashini qanchalik go'zal bo'lishini orzu qilgan bo'lsa, bu maqsad sari yo'naltirilgan asarlari ham shu qadar ifoda vositalari bilan oroyish topgan.

Avvalo, Sidqiyning badiiy tilini jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirishdagi xizmatlarini alohida ta'kidlamoq kerak. Bu yo'lda u xalq maqollar, naql, metal va iboralaridan keng foydalandi. Bu hol ko'pgina nasriy asarlari qatori "Zarbulmasali Sidqiy" asarida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Jumladan:

"Savol: Tuya ko'rdingmu? - "yo'q" ni qayu chog'da aytilur?"

Javob: Ish bitimi uchun rishva (pora) berilganda (204).

Savol : Ishtonsizning tushig'a nima kirar?"

Javob: Bir qarich so'z, bir metr chit (205) "

Muallif bu o'rinda o'z zamonasining uzunlik o'lchosini ham an'anaviy naqlga qo'shib, ifodaning zamonaviylikini ta'min etgan. Yoki boshqa bir o'rinda poetik ifoda usuli bilan xalq maqolining chiroyli talqiniga erishgan:

"Savol: Ul nimadurkim bir qozonda qaynamaydur?"

Javob: Ikki qo'chqorning boshi.

Hasad kuchi shu xil avj olgan, ey birodarlar,

Qozonda ham tushar ikkiki kalllai qo'chqor(212)"

Xalq donoligi namunalarini o'z o'rnida, lozim bo'lganda badiiy o'zlashtirma shaklida ishlata olish mahoratining guvohi bo'lib turibmiz. Bunday manzarani adibning har bir asarida uchrashtirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zRFA ShI qo'lyozmalar fondi Inv: 7621 Sidqiy Xandaliqiy.
2. O'zRFA ShI qo'lyozmalar fondi Inv: 7621 Sidqiy Xandaliqiy.
3. Holati Sidqiy, Qo'lyozma. O'zFASHI inv. №P 7629 II.

